

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ZARIPOVA SHAHLO OLIMOVNA

**DINAMIK OBYEKT LARNI BOSHQARUV
TIZIMLARIDA ADAPTIV FILTRLASH ALGORITMLARI**

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotlarni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Zaripova Shahlo Olimovna

Dinamik obyektlarni boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash algoritmlari3

Зарипова Шахло Олимовна

Алгоритмы адаптивной фильтрации в системах управления динамическими объектами.....21

Zaripova Shakhlo Olimovna

Adaptive filtering algorithms in dynamic object control systems39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ZARIPOVA SHAHLO OLIMOVNA

**DINAMIK OBYEKTЛАRNI BOSHQARUV
TIZIMLARIDA ADAPTIV FILTRLASH ALGORITMLARI**

05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotlarni qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan №B2025.3.PhD/T5875 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyaning avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (annotatsiya)) ilmiy kengashning saytiga (www.tuit.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sevinov Jasur Usmonovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nurmuxamedov Tolaniddin Ramziddinovich
texnika fanlari doktori, professor

Seytov Aybek Jumabayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “10” iyun soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomli Toshkent axborot texnologiyalari universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro‘yxatga olish raqami 422) (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shohko‘chasi, 108-uy Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “22” may kuni tarqatildi.
(2026-yil “22” may dagi 22-raqamli reestr bayonnomasi).



M.M. Kamilov

M.M. Kamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori,
professor, O‘zR FA akademigi

N.A. Egamberdiyev

N.A. Egamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

N.O. Raximov

N.O. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi yillarda murakkab dinamik obyektlarni boshqarish tizimlarida axborotni qayta ishlash, noaniqlik va tashqi ta’sirlar mavjud sharoitlarda ishonchli boshqaruvni ta’minlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya va Buyuk Britaniya kabi yetakchi mamlakatlarda adaptiv filtrlash algoritmlari sanoat obyektlarida qo‘llanilib, ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta’minlash, nosozliklarni erta aniqlash va energiya hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Bu borada, sensorlardan kelayotgan shovqinli signallarni qayta ishlash, parametrlarni real vaqtda baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish orqali texnologik jarayonlarda axborotlarni qayta ishlashning sifatini oshirish, boshqarish tizimlarining ishonchliligini ta’minlash, avariya holatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim amaliy vazifalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli, dinamik obyektlarning boshqarish tizimlarida adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish, ularni real ishlab chiqarish sharoitiga moslashtirish va joriy etish, shu orqali tizimlarning aniqligi, turg’unligi va ishonchliligini oshirish bugungi kunda dolzarb amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda dinamik jarayonlar va ishlab chiqarishni boshqarish tizimlarini sintez qilishning samarali usullari va algoritmlarini takomillashtirishga, jumladan dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash muammolariga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, boshqarish tizimlarida filtrlash usullari, adaptiv filtrlash uchun iterativ va muntazam usullar, sun’iy neyron tarmoqli adaptiv gibrid filtrlash algoritmlari, barqaror bo‘lgan hisoblash sxemalari, adaptiv filtrlarni tatbiq etishning sonli usullari, ma’lumotlarni qayta ishlash usullari asosida ishonchlik va axborotni tahlil qilish tizimlarini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo, neft-gaz, oziq-ovqat, energetika, mashinasozlik, va qayta ishlash sohalarida, xususan, ushbu sohalarida energiya va resurs tejamkorlikni ta’minlovchi, takomillashgan adaptiv boshqarish tizimlarini loyihalash va ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasida, jumladan “ ... iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish”¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ishlab chiqarishda jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish, axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarga tegishli bo‘lgan so‘nggi yillardagi ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili ushbu sohada ahamiyatli darajadagi nazariy va amaliy natijalarga erishilganligidan darak beradi. Adaptiv filtrlash va boshqarish tizimlarini sintezlash muammolariga bag‘ishlangan ko‘p sondagi ishlar nashr etilgan, umumnazariy mezonlar ishlab chiqilgan, yechilgan amaliy masalalar soni ortib bormoqda. Jahon miqyosidagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlari, jumladan University of Cambridge (Buyuk Britaniya), California Institute of Technology, University of Princeton, Massachusetts Institute of Technology (AQSh), KAIST - Korea Advanced Institute of Science & Technology (Janubiy Koreya), N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti (Rossiya), Nagoya University (Yaponiya) va Toshkent davlat texnika universitetida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish, tizimli tahlil qilish, boshqaruv va axborotlarni qayta ishlash va takomillashtirish rivojiga ko‘plab xorijiy olimlar, jumladan, D.Simon², S.Haykin³, D.P.Kim⁴, V.I.Djigan⁵, A.B.Sergienko⁶, D.Makkonnell⁷, V.O.Nikiforov⁸, shuningdek mamlakatimizdan N.P.Yusupbekov⁹, M.M.Kamilov¹⁰, X.Z.Igamberdiyev¹¹, T.F.Bekmuratov¹², M.A.Ismailov, A.A.Kadirov, I.X.Siddikov¹², A.R.Maraximov¹², O.O.Zaripov¹³, J.U.Sevinov¹³ va boshqa olimlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shishgan.

Shu bilan birga, dinamik obyektlarning boshqarish tizimlarini sintez qilishda so‘nggi yillarda ilmiy-tadqiqotlar doirasining murakkablashishi va kengayishi ularning dinamik obyektlarni boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash yangi samarali usullar va algoritmlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Obyektning o‘lchash

²Simon D. Optimal State Estimation: Kalman, H Infinity, and Nonlinear Approaches. – Wiley-Interscience, 2006. – 552 p.

³Haykin S. Adaptive Filter Theory. – 5th ed. – Pearson, 2013. – 928 p.

⁴Ким Д.П. Теория автоматического управления. – М.: Издательство Юрайт, 2025. – 309 с.

⁵Джиган В.И. Параллельные вычисления в RLS-алгоритмах адаптивной фильтрации // Вестник Московского государственного технического университета им.Н.Э.Баумана. Серия «Приборостроение», 2006, №1. – С.30-49.

⁶Сергиенко А.Б. Цифровая обработка сигналов. Учебн. пособие, 3-е изд.-е. – С.-Пб.: БХВ-Петербург, 2011.

⁷Макконнелл Д. Анализ алгоритмов: активный обучающий подход. – Санкт-Петербург: Питер, 2019. – 416 с.

⁸Никифоров В.О. Адаптивное и робастное управление с компенсацией возмущений. – М.: Наука, 2003. – 282 с.

⁹Yusupbekov N., Adilov F., Ivanyan A., Abdurasulov F. Application of digital twin technologies in mining industrial branch // E3S Web of Conferences 417, 05016, 2023.

¹⁰Камилов М.М., Фазилов Ш.Х., Мирзаев Н., Раджабов С.С. Модели алгоритмов распознавания, основанных на оценке взаимосвязанности признаков. Монография. – Ташкент: изд-во "Фан ва технология", 2020, – 148 с.

¹¹Игamberдиев Х.З., Юсупбеков А.Н., Зарипов О.О. Регулярные методы оценивания и управления динамическими объектами в условиях неопределенности. – Т.: ТашГТУ, 2012. – 320 с.

¹²Бекмуратов Т.Ф. Систематизация задач интеллектуальных систем поддержки принятия решений // Проблемы информатики и энергетики. 2003. №4. – С.24-35.

¹²Марахимов А.Р., Игamberдиев Х.З., Юсупбеков А.Н., Сидиков И.Х. Нечетко множественные модели и интеллектуальное управление технологическими процессами. – Т.: ТашГТУ, 2014. – 240 с.

¹³Игamberдиев Х.З., Севинов Ж.У., Зарипов О.О. Регулярные методы и алгоритмы синтеза адаптивных систем управления с настраиваемыми моделями. - Т.: ТашГТУ, 2014. – 160 с.

xatoliklarining o‘zaro bog‘liqligi sharoitida filtrlarning o‘z-o‘zidan moslashuvchanligini yaxshilash va bu baholashlarning haqiqiy qiymatlarga yaqinlashishini ta‘minlash kerak bo‘ladi. Shu sababli, oddiy filtrlash, boshqarish va axborotlarni qayta ishlash usullari ushbu tizimlarni to‘liq boshqarish uchun yetarli bo‘lmaydi. Dastlabki ma‘lumotlarga eng yaqin bo‘lgan yechim tanlanadigan dinamik obyektlarning boshqarish tizimlarida adaptiv filtrlashning iteratsion algoritmlari, additiv shovqinli noxiziqli tizimlar uchun QR-dekompozitsiya, Xoleski koeffitsiyentini yangilash va eng kichik kvadratlar usuli konsepsiyalari asosida adaptiv filtrlash algoritmlari, Kalman statsionar filtrning kuchaytirish koeffitsiyentini hisoblash uchun iteratsion va algebraik algoritmlar, Kalman filtrning kuchaytirish koeffitsiyentini baholashning muntazam algoritmlari, adaptiv filtr tarkibida sun‘iy neyron tarmog‘i bo‘lgan adaptiv gibril filtrlash algoritmlari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Bundan tashqari, filtrning samaradorligi asosan obyekt shovqini va o‘lchash halaqitlarining intensivligi bilan belgilanadigan dinamik obyektlarni boshqarish masalalari uchun Kalman filtrini amalga oshirishning sonli algoritmlarini hamda axborotni qayta ishlashning kompyuter usullariga asoslangan ishonchlilikni oshirish usullarini va axborotni tahlil qilish tizimlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Bundan kelib chiqib, dinamik obyektlarni adaptiv filtrlash boshqarish tizimlarini qurish va amalga oshirishning algoritmik protseduralari doirasini kengaytiradi va ularning ishlash samaradorligini oshiradi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish, adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish va axborotlarni qayta ishlashning samarali algoritmlarini modifikatsiyalash va yangilarini yaratishga bo‘lgan ehtiyoj borligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining №OT-F4-78 – “Identifikatsion yondashuv asosida dinamik obyektlarni adaptiv boshqarish sistemalari sintezining nazariy asoslari va muntazam usullarini ishlab chiqish” (2017-2020 yy.) va №FL-9524115106 – “Texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirish konsepsiyasi va metodologiyasini yaratish va nazariyasini takomillashtirish” (2025-2029 yy.) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborotlarni tahlil qilish va qayta ishlash asosida dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash usullari va algoritmlarining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini tizimli tahlil qilish;

additiv shovqinli noxiziqli tizimlar uchun adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish;

adaptiv filtr tarkibida sun‘iy neyron tarmog‘i bo‘lgan adaptiv gibril filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish;

chiziqli tizimlarni parametrik identifikatsiyalash masalasini yechish uchun yaxlitlash xatolariga nisbatan sonli barqaror hisoblash sxemasini ishlab chiqish;

Kalman statsionar filtrining kuchaytirish koeffitsiyentini hisoblash uchun iteratsion va algebraik algoritmlarni ishlab chiqish;

ma'lum bir dinamik obyektning adaptiv boshqaruv tizimini sintez qilish masalasini yechish va holatni barqaror baholashda ishlab chiqilgan algoritmlar va hisoblash sxemalarini amaliy sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida dinamik obyektlarning boshqaruv jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti boshqaruv obyektlari holatini dinamik filtrlash algoritmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizim tahlil tamoyillari, adaptiv boshqarish nazariyasi, dinamik filtrlash, muntazamlash, axborotni qayta ishlash va ishonchlilikni oshirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'lchash xatoliklarining o'zaro bog'liqligi sharoitida filtrlarning o'z-o'zidan moslashuvchanligini yaxshilash va bu baholashlarning haqiqiy qiymatlarga yaqinlashishini ta'minlash imkonini beruvchi QR-dekompozitsiya, Xoleski koeffitsiyentini yangilash va eng kichik kvadratlar usuli konsepsiyalari asosida additiv shovqinli noxiziqli tizimlar uchun adaptiv filtrlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

neyron tarmog'ini o'qitish va filtrlash jarayonlari uchun vazn koeffitsiyentlarini o'lchanayotgan hamda kuzatilayotgan ko'rsatkichlarning statistik xususiyatlariga moslashtirishga imkon beradigan adaptiv filtr tarkibida sun'iy neyron tarmog'i bo'lgan adaptiv gibrid filtrlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

hisoblash aniqligini va baholash algoritmining ishonchliligini oshirish imkoniyatini beradigan gradiyent optimallashtirish usullari yoki Nyuton tipidagi usullarni qo'llagan holda chiziqli tizimlarni parametrik identifikatsiyalash masalasini yechish uchun yaxlitlash xatolariga nisbatan sonli barqaror hisoblash sxemasi ishlab chiqilgan;

barqaror holatda kuchaytirish koeffitsiyentini yoki dinamik filtr parametrlarini mustaqil ravishda hisoblash imkonini beradigan Kalman statsionar filtrining kuchaytirish koeffitsiyentini hisoblash uchun iteratsion va algebraik algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

obyekt parametrlari, shovqin va g'alayonlarning hisoblash aniqligini oshirish imkonini beruvchi adaptiv filtrlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

propan-butan aralashmasini ajratish jarayonining texnologik rejimini barqarorlash imkonini beruvchi sun'iy neyron tarmoqli adaptiv gibrid filtrlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

axborotlarni qayta ishlash ishonchliligi va ularni tahlil qilish tizimining samaradorligini oshirish imkonini beruvchi chiziqli tizimlarni parametrik identifikatsiyalash masalasini yechish uchun yaxlitlash xatolariga nisbatan sonli barqaror hisoblashning sxemalari ishlab chiqilgan;

adaptiv rostlagich parametrlarini hisoblash aniqligini oshirish imkonini beruvchi Kalman statsionar filtrining kuchaytirish koeffitsiyentini hisoblashning iteratsion va algebraik algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy jihatdan asoslangan nazariy hisob-kitoblarning amalga oshirilishi, dinamik obyektlarni adaptiv filtrlashning nazariy asoslangan konsepsiyalarining qo'llanilishi, zamonaviy avtomatik boshqarish va axborotlarni qayta ishlashning aprobatsiya qilingan usullari va algoritmlarining ishlatilishi, adaptiv filtrlashning taklif etilgan usullari va algoritmlarining talab qilingan yaqinlashish darajasi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning olingan natijalari va ularning o'zaro mosligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dinamik boshqaruv obyektlarning holatlarini muntazam adaptiv filtrlashning konstruktiv usullari va algoritmlarini hamda axborotni tahlil qilish tizimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dinamik obyektlarning boshqarish tizimlarini adaptiv filtrlash va sintezlash masalalarining matematik va algoritmik ta'minoti hamda axborotlarni qayta ishlashning usullarini ishlab chiqishdan iborat. Dinamik boshqaruv obyektlari holatlarini adaptiv filtrlashning ishlab chiqilgan usul va algoritmlari hamda axborotni tahlil qilish tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning adaptiv tizimlarining funksional strukturalarini qurish va loyihalashni avtomatlashtirishda keng qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dinamik obyektlarning boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

additiv shovqinli noxiziqli tizimlar uchun QR-dekompozitsiya, Xoleski koeffitsiyentini yangilash va eng kichik kvadratlar usuli konsepsiyalari asosida adaptiv filtrlashning ishlab chiqilgan algoritmlari "O'zbekneftgaz" AJning Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida joriy qilingan ("O'zbekneftgaz" AJning 09.04.2026 yildagi 07-18-8-278-son ma'lumotnomasi). Natijada obyekt parametrlari, shovqin va g'alayonlarini hisoblash aniqligi oshgan;

adaptiv filtr tarkibida sun'iy neyron tarmog'i bo'lgan adaptiv gibrid filtrlashning ishlab chiqilgan algoritmlari "O'zbekneftgaz" AJning Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida joriy qilingan ("O'zbekneftgaz" AJning 09.04.2026 yildagi 07-18-8-278-son ma'lumotnomasi). Natijada algoritmlar propan-butan aralashmasini ajratish jarayonining texnologik rejimini barqarorlash imkonini bergan;

gradiyent optimallashtirish usullari yoki Nyuton tipidagi usullarni qo'llagan holda chiziqli tizimlarni parametrik identifikatsiyalash masalasini yechish uchun yaxlitlash xatolariga nisbatan sonli barqaror hisoblashning sxemalari "O'zbekneftgaz" AJning Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida joriy qilingan ("O'zbekneftgaz" AJning 09.04.2026 yildagi 07-18-8-278-son ma'lumotnomasi). Natijada axborotlarni qayta ishlash ishonchliligi va ularni tahlil qilish tizimining samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Kalman statsionar filtrining kuchaytirish koeffitsiyentini hisoblashning ishlab chiqilgan iteratsion va algebraik algoritmlari "O'zbekneftgaz" AJning Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida joriy qilingan ("O'zbekneftgaz" AJning 09.04.2026 yildagi 07-18-8-278-son ma'lumotnomasi). Natijada adaptiv rostlagich parametrlarini hisoblash aniqligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Pespublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola (7 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan. Shuningdek, EHMLar uchun dasturiy mahsulotlarga O'zbekiston Pespublikasi Intellektual mulk agentligidan ro'yxatdan o'tgan 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Boshqaruv tizimlarida filtrlash usullari va algoritmlari va axborotni qayta ishlash vositalarini tahlil qilish**" nomli birinchi bobida mavjud adaptiv filtrlash algoritmlari va ularning samaradorligi, axborotni qayta ishlash usullari va algoritmlarining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, shuningdek tadqiqot maqsadi va qo'yilgan vazifalar bayon etilgan.

Dinamik obyektlarni nazorat qilish va ularning ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni kompleks yechish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, tizimning mustahkamligi, ishonchliligi hamda texnologik xarajatlarning maqbulligi bilan bir qatorda eng yuqori samaradorlikka erishish tabiiy zaruratdir. Shu boisdan, tizim darajasida tashxislash jarayonlarini tashkil etish murakkab obyektlarning o'ziga xosliklari, ularning tashqi omillar bilan o'zaro ta'siri, shuningdek, mavjud ma'lumotlarning cheklanganligi va qarama-qarshiligi bilan bog'liqdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda raqamli signal protsessorlari va ularga asoslangan qurilmalarning soni ham ortib bormoqda. Bu esa signallarga ishlov berish sifatining oshishiga olib kelmoqda. Agar filtrlarning uzatish funksiyasi oldindan aniq belgilanmagan bo'lsa yoki foydalanish jarayonida parametrlar o'zgarib tursa, klassik, o'zgarmas parametrlil filtrlardan foydalanish etarli emas. Ushbu masalalarni yechish boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa dinamik obyektlarni boshqarish tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishi – noaniqlik sharoitida adaptiv filtrlash usullaridan foydalanish orqali dinamik obyektlarni boshqarish tizimlarining aniqligi va barqarorligini oshirish masalasini hal etishdan iborat. Bunday turdagi algoritmlarni yaratish jarayoni chuqur nazariy tahlil, sonli modellashtirish, parametrlarni optimallashtirish hamda hisoblash murakkabligini baholashni talab etadi. Shu bilan birga, taklif etilgan yondashuvlarning hisoblash samaradorligi va ularni real vaqt sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy izlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, bu omillar avtomatlashtirilgan dinamik obyektlarni boshqarish tizimlarining ishonchli va samarali faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning “**Dinamik obyektlarni boshqaruv tizimlarida adaptiv filtrlash algoritmlarini ishlab chiqish**” nomli ikkinchi bobida adaptiv filtrlash uchun iterativ algoritmlar ishlab chiqilgan, additiv shovqinlar ta’sirida obyektlarni baholash algoritmlari taklif qilingan. Kalman filtrining matritsali kuchaytirish koeffitsiyentlarini baholash uchun barqaror iteratsion va muntazam algoritmlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, adaptiv filtr tarkibida sun’iy neyron tarmoqli gibridd filtrlash algoritmlari va yaxlitlash xatolariga nisbatan son jihatdan barqaror hisoblash sxemalari taklif qilingan.

Quyidagi tenglamalar bilan ifodalangan chiziqli dinamik tizimni ko‘rib chiqamiz:

$$\begin{aligned}x_{i+1} &= Ax_i + w_i, \\z_i &= Hx_i + v_i,\end{aligned}\tag{1}$$

$i \geq 0$ uchun, bu yerda x_i – i vaqtdagi n o‘lchovli holat vektori, z_i – i vaqtdagi m o‘lchovli o‘lchash vektori, A – $n \times n$ o‘lchovli tizim o‘tish matritsasi, H – $m \times n$ o‘lchovli chiqish matritsasi, w_i – i vaqtdagi obyekt shovqini va v_i – i vaqtdagi o‘lchash halaqiti hisoblanadi. Bundan tashqari, $\{w_i\}$ va $\{v_i\}$ mos ravishda Q va R kovariatsiya matritsalariga ega bo‘lgan, o‘rtacha qiymati nolga teng bo‘lgan Gauss tasodifiy jarayonlaridir.

Kalman filtrining optimal baholash algoritmini ifodalovchi tenglamalar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsin:

$$\begin{aligned}\hat{x}_{i/i-1} &= A\hat{x}_{i-1/i-1}, \quad \hat{x}_{i/i} = \hat{x}_{i/i-1} + Ky_i, \quad y_i = z_i - H\hat{x}_{i/i-1}, \\P &= E \left\{ \begin{bmatrix} x_i - \hat{x}_{i/i-1} \\ x_i - \hat{x}_{i/i-1} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x_i - \hat{x}_{i/i-1} \\ x_i - \hat{x}_{i/i-1} \end{bmatrix}^T \right\} = AP'A^T + \tilde{A}Q\tilde{A}^T, \\P &= E \left\{ \begin{bmatrix} x_i - \hat{x}_{i/i} \\ x_i - \hat{x}_{i/i} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x_i - \hat{x}_{i/i} \\ x_i - \hat{x}_{i/i} \end{bmatrix}^T \right\} = (I - KH)P(I - KH)^T + KRK^T, \quad \hat{x}_{0/0} = \hat{x}_0, \quad P_{0/0} = P_0.\end{aligned}$$

Bashorat qilish va baholash xatoliklarining kovariatsiya matritsalarini hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$K_i = P_{i/i-1}H^T(HP_{i/i-1}H^T + R)^{-1},\tag{2}$$

$$P_{i/i} = (I - K_iH)P_{i/i-1},\tag{3}$$

$$P_{i+1/i} = Q + AP_{i/i}A^T,$$

bu yerda K_i – Kalman filtrining kuchaytirish koeffitsiyenti hisoblanadi. $i \geq 0$ bo‘lgan holat uchun, boshlang‘ich shart $P_{0/-1} = P_0$ bo‘lib, o‘lchovlar mavjud bo‘lmagan ushbu vaqt nazarda tutiladi.

Additiv shovqinli nochiziqli tizimlar uchun adaptiv filtrlash yondashuvini ko‘rib chiqamiz. Adaptiv baholash algoritmi quyidagilardan iborat:

$$\hat{x}_0 = E[x_0], \quad S_0 = chol\{E[(x_0 - \hat{x}_0)(x_0 - \hat{x}_0)^T]\}, \quad \sqrt{\hat{Q}_0} = S_0, \quad \sqrt{\hat{R}_0} = chol\{E[(z_0 - \hat{z}_0)(x_0 - \hat{z}_0)^T]\}.$$

$$\chi_{i-1} = [\hat{x}_{i-1} \hat{x}_{i-1} + \gamma S_{i-1} \hat{x}_{i-1} - \gamma S_{i-1}] \text{ da } i = 1, 2, \dots, \infty.$$

O‘lchanayotgan shovqin matritsasidan kvadrat ildizni hisoblaymiz:

$$\hat{Z}_{i-1}^* = h(\hat{\chi}_{i-1}), \quad \hat{z}_{i-1}^* = \sum_{k=0}^{2L} W_k^{(m)} \hat{Z}_{i-1,k}^*, \quad \tilde{z}_{i-1}^* = z_{i-1} - \hat{z}_{i-1}^*,$$

$$\sqrt{R^{**}} = cholupdate\{\sqrt{1-d_i} \sqrt{\hat{R}_{i-1}}, |\tilde{z}_{i-1}^*|, d_i\}, \quad (4)$$

$$\sqrt{R^*} = cholupdate\{\sqrt{R^{**}} \hat{Z}_{i-1|0:2L}^* - \tilde{z}_{i-1}^*, -d_i W_k^{(c)}\}, \quad \sqrt{\hat{R}_i} = diag\{\sqrt{R^*}\},$$

bu yerda $\hat{\chi}_{i|i-1} = [\hat{x}_{i|i-1} \hat{x}_{i|i-1} + \gamma S_{i|i-1} \hat{x}_{i|i-1} - \gamma S_{i|i-1}]$, $\hat{Z}_{i|i-1} = h(\hat{\chi}_{i|i-1})$,

$$\hat{z}_{i|i-1} = \sum_{k=0}^{2L} W_k^{(m)} \hat{Z}_{i|i-1,k}, \quad \tilde{z}_{i-1}^* = z_{i-1} - \hat{z}_{i|i-1}.$$

O‘lchov yangilash tenglamalari quyidagilardan iborat:

$$P_{(xz)i} = \sum_{k=0}^{2L} W_k^{(c)} (\hat{\chi}_{i|i-1,k} - \hat{x}_{i|i-1}) (\hat{Z}_{i|i-1,k} - \hat{z}_{i|i-1})^T, \quad S_{(z)i} = qr\left\{\left[\sqrt{W_1^{(c)}} (\hat{Z}_{i|i-1,1:2L} - \hat{z}_{i|i-1}) \sqrt{\hat{R}_i}\right]\right\},$$

$$S_{(z)i} = cholupdate\{[S_{(z)i}, \hat{Z}_{i|i-1,0} - \hat{z}_{i|i-1}, W_0^{(c)}]\}, \quad K_i = \frac{(P_{(xz)i} / S_{(z)i}^T)}{S_{(z)i}},$$

$$\hat{x}_i = \hat{x}_{i|i-1} + K_i \tilde{z}_i, \quad U = K_i S_{(z)i}, \quad S_{(z)i} = cholupdate\{S_{i|i-1}, U, -1\}.$$

Jarayon shovqinlari matritsasidan kvadrat ildizni quyidagicha baholaymiz

$$\sqrt{Q^{**}} = cholupdate\{\sqrt{\hat{Q}_{i-1}}, |\hat{x}_i - \hat{x}_{i|i-1}|, d_i\},$$

$$\sqrt{Q^*} = cholupdate\{\sqrt{Q^{**}}, U, -d_i\}, \quad \sqrt{\hat{Q}_i} = diag\{diag(\sqrt{Q^*})\}, \quad (5)$$

bu yerda $d_i = (1-b)/(1-b^{i+1})$ va b unutish koeffitsiyenti hisoblanadi, odatda $0 < b < 1$ ga teng bo‘ladi. O‘rtacha qiymat va kovariatsiyaning og‘irliklari ($W_k^{(m)}$ va $W_k^{(c)}$) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W_0^{(m)} = \frac{\lambda}{L + \lambda}, \quad W_0^{(c)} = \frac{\lambda}{L + \lambda} + 1 - \alpha^2 + \beta, \quad W_k^{(m)} = W_k^{(c)} = \frac{1}{2(L + \lambda)}, \quad k = 1, \dots, 2L,$$

bu yerda $\lambda = \alpha^2(L + \kappa)$ masshtablash parametri hisoblanadi.

(4) va (5)-ifodalarda keltirilgan tenglamalar standart tenglamalardan farq qiladi. Bu tenglamalar filtrning moslashuvchanlik qobiliyatini oshiradi. Ishlab chiqilgan adaptiv filtr Q yoki R ning musbat yarim aniqligini kafolatlaydi.

Parametrik aprior noaniqlik mavjud bo‘lgan sharoitda dinamik tizimlarning holatini aniqlash maqsadida chiziqli dinamik tizimni

$$G_i = K_i H$$

ko‘rib chiqamiz. Bu yerda G_i va $n \times n$ o‘lchamli nosimmetrik matritsa hisoblanadi.

Kalman filtri kuchaytiruv koeffitsiyenti K_k ga nisbatan quyidagi chiziqsiz iterativ tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} K_{k+1} &= (QA^{-T}H^TR^{-1} + AK_k)[HQA^{-T}H^TR^{-1} + HS^{-1}A^{-T}H^TR^{-1} + HAK_k]^{-1} = \\ &= (C + DK_k)[L + BK_k]^{-1}, \end{aligned} \quad (6)$$

bu yerda

$$\begin{aligned} L &= HQA^{-T}H^TR^{-1} + HS^{-1}A^{-T}H^TR^{-1} = H(Q + S^{-1})A^{-T}H^TR^{-1}, \\ B &= HA, \quad C = QA^{-T}H^TR^{-1}, \quad D = A. \end{aligned} \quad (7)$$

(6)-ifodadan foydalanib, Kalman filtri kuchaytirish koeffitsiyenti K_k ga nisbatan quyidagi chiziqli bo‘lmagan iteratsion tenglamani hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} K_{k+1} &= (C + DK_k)[L + BK_k]^{-1} = c + l[K_k^{-1} + b]^{-1}d, \\ K_k &= Y_k X_k^{-1}, \quad Y_{k+1} X_{k+1}^{-1} = (C + DY_k X_k^{-1})[L + BY_k X_k^{-1}]^{-1} = (CX_k + DY_k)[LX_k + BY_k]^{-1}, \\ \begin{bmatrix} X_{k+1} \\ Y_{k+1} \end{bmatrix} &= \Phi \begin{bmatrix} X_k \\ Y_k \end{bmatrix}, \quad \Phi = \begin{bmatrix} L & B \\ C & D \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} d^{-1} & d^{-1}b \\ cd^{-1} & cd^{-1}b + l \end{bmatrix}, \\ l &= D - CL^{-1}B, \quad b = L^{-1}B, \quad c = CL^{-1}, \quad d = L^{-1}, \quad K_0 = P_0 H^T [HP_0 H^T + R]^{-1}. \end{aligned}$$

K_k quyidagi tenglamani qanoatlantiruvchi \tilde{K} barqaror holat qiymatiga intiladi: $\tilde{K} = c + a[\tilde{K}^{-1} + b]^{-1}d$. Shunday qilib, ikkilantiruvchi iteratsion algoritmdagidek ishlaydigan va boshlang‘ich shart sifatida $P_0 = 0$ ni qo‘llanilganda, $K_0 = Y_0 X_0^{-1} = 0$ bo‘ladi. Natijada quyidagi nochiziqli iteratsion tenglamalarni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} l_{k+1} &= l_k (I - c_k [I + b_k c_k]^{-1} b_k) l_k, \quad b_{k+1} = b_k + d_k [I + b_k c_k]^{-1} b_k l_k, \\ c_{k+1} &= c_k + l_k c_k [I + b_k c_k]^{-1} d_k, \quad d_{k+1} = d_k [I + b_k c_k]^{-1} d_k, \quad l_1 = l, \quad b_1 = b, \quad c_1 = c, \quad d_1 = d. \end{aligned}$$

Ko‘rish mumkinki, $c_k = Y_{\gamma^k} X_{\gamma^k}^{-1} = K_{\gamma^k}$ ifodasi \tilde{K} doimiy qiymatga intilmoqda. (7)-ifodada keltirilgan tenglamadagi L, B, C, D parametrlaridan foydalanib, quyidagi natijaga kelamiz:

$$\Phi = \begin{bmatrix} L & B \\ C & D \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} W_{11} & W_{12} \\ W_{21} & W_{22} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \Lambda & 0 \\ 0 & \Lambda^{-1} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} W_{11} & W_{12} \\ W_{21} & W_{22} \end{bmatrix}^{-1},$$

bu $2n \times 2n$ o‘lchamli matritsadir. Shundan keyin, turg‘un holatdagi Kalman filtri quyidagi natijaga teng $\tilde{K} = W_{21} W_{11}^{-1}$.

Turg‘un holatdagi Kalman filtrining kuchaytirish koeffitsiyenti \tilde{K} ni hisoblash algoritmini ko‘rib chiqamiz:

$$x_{k+1/k+1} = (I - \tilde{K}H)Ax_{k/k} + \tilde{K}z_{k+1} = (I - \tilde{G})Ax_{k/k} + \tilde{K}z_{k+1}. \quad (8)$$

(8)-ifodadan ko‘rinib turibdiki, turg‘un holatdagi Kalman filtrining parametrlari Kalman filtrining kuchaytirish koeffitsiyenti bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, turg‘un holatdagi bashorat xatosining kovariatsiyasini turg‘un holat kuchaytiruvchisi orqali hisoblash mumkin va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\tilde{P}_p = [I - \tilde{K}H]^{-1} \tilde{K}RH[H^T H]^{-1}. \quad (9)$$

Darhaqiqat, (2)-ifodadan $\tilde{K} = \tilde{P}_p H^T [H\tilde{P}_p H^T + R]^{-1}$ kelib chiqadi, bu esa o‘z navbatida quyidagicha natijaga olib keladi:

$$\begin{aligned} \tilde{K}(H\tilde{P}_p H^T + R) &= \tilde{P}_p H^T \Rightarrow \tilde{K}H\tilde{P}_p H^T + \tilde{K}R = \tilde{P}_p H^T \\ \Rightarrow \tilde{P}_p H^T - \tilde{K}H\tilde{P}_p H^T &= \tilde{K}R \Rightarrow (I - \tilde{K}H)\tilde{P}_p H^T = \tilde{K}R \\ \Rightarrow \tilde{P}_p H^T &= [I - \tilde{K}H]^{-1} \tilde{K}R \Rightarrow \tilde{P}_p H^T H = [I - \tilde{K}H]^{-1} \tilde{K}RH. \end{aligned}$$

$rank(H) = n$ bo'lgani sababli, $H^T H$ matritsasi maxsus bo'lmagan; shunday qilib, oxirgi tenglamadan (9)-ifodadagi barqaror holatni bashorat qilish orqali kovariatsiya formulasi darhol kelib chiqadi. Bu yerdan, (3) ifodadagi formulaga ko'ra, turg'un holatdagi baholash xatosi kovariatsiyasini turg'un holatdagi bashorat xatosi kovariatsiyasi orqali hisoblash mumkin: $\tilde{P}_e = [I - \tilde{K}H]\tilde{P}_p$. Bu algoritm katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlashni talab etmaydi. Yangi ma'lumotlar qabul qilinganda, yangi filtrlash qiymatini istalgan vaqtda hisoblash mumkin. Shu sababli, bu usul real vaqt rejimida ma'lumotlarga ishlov berishni osonlashtiradi va kompyuterda hisoblash, dasturlash hamda amalga oshirish uchun qulay hisoblanadi.

Chiziqli dinamik tizimlardagi jarayonlarning parametrlari va holatlarini bir vaqtning o'zida baholashni talab qiladigan holatni ko'rib chiqamiz. Tizim holatlarining dinamik o'zgarishlari quyidagi yordamchi holat parametrlariga asoslangan rekurrent tenglamalar shaklida ifodalanadi:

$$\begin{aligned}\hat{\alpha}_{i+1} &= \tilde{\mathfrak{R}}_{i+1,i,u}^T \hat{\alpha}_i + K_{i+1} \left[z_{i+1} - H(Y_{i+1}) \tilde{\mathfrak{R}}_{i+1,i,u}^T \hat{\alpha}_i \right], \\ K_{i+1} &= P(\Delta\alpha_{i+1|i}) H^T(Y_{i+1}) \left[H(Y_{i+1}) P(\Delta\alpha_{i+1|i}) H^T(Y_{i+1} + V_{\eta(i+1)}) \right]^{-1}, \\ P(\Delta\alpha_{i+1|i}) &= \tilde{\mathfrak{R}}_{i+1,i,u} P(\Delta\alpha_i) \tilde{\mathfrak{R}}_{i+1,i,u}^T + \tilde{A}_i V_{\xi(i)} \tilde{A}_i^T, \\ P(\Delta\alpha_i) &= [E - K(Y_{i+1}) H(Y_{i+1})] P(\Delta\alpha_{i+1|i}),\end{aligned}$$

bu yerda $\hat{\alpha}_{i+1}$ va $\hat{\alpha}_i$ – tizim holatlari o'zgarish jarayonining mos ravishda $(i+1)$ -qadamdagi va (i) -qadamdagi yordamchi vektor ko'rsatkichlari sifatida qaraladi. $\tilde{\mathfrak{R}}_{i+1,i,u}^T$ esa Markov zanjiri asosida holatlarning o'zgarish jarayonini tavsiflovchi bir qadamli o'tish ehtimolliklari matritsasining transpozitsiyasi hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan masalaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tizim holatlarining yordamchi ko'rsatkichlarini, ya'ni $\hat{\alpha}_{i+1}^N$ vektor-ustuni elementlarini baholash qiymatlarini olish uchun neyron tarmoqli gibrid adaptiv filtrlash jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

$$\begin{aligned}\hat{\alpha}_{i+1|i} &= \tilde{\mathfrak{R}}_{i+1,i,u}^T \hat{\alpha}_i^N; \hat{Z}_{i+1|i} = H(Y_{i+1}) \hat{\alpha}_{i+1|i}, \hat{\alpha}_{i+1}^N = K^N(\hat{\alpha}_{i+1|i}, Z_{i+1}, E_{i+1}), \\ Z_{i+1} &= [z_{i+1}^T, z_i^T, \dots, z_{i-m_z+1}^T]^T; E_{i+1} = [\varepsilon_{i+1}^T, \varepsilon_i^T, \dots, \varepsilon_{i-m_\varepsilon+1}^T]^T, \\ \varepsilon_{i+1} &= Z_{i+1} - \hat{Z}_{i+1|i} = Z_{i+1} - H(Y_{i+1}) \hat{\alpha}_{i+1|i}, \\ R &= (m_z + 1)M + (m_\varepsilon + 1)M + M = (m_z + m_\varepsilon + 3), \\ Y_{i+1} &= [y_{1(i+1)}, y_{2(i+2)}, \dots, y_{R(i+1)}]^T = [\hat{\alpha}_{i+1|i}^T, Z_{i+1}^T, E_{i+1}^T]^T.\end{aligned}$$

Moslashuvchan gibrid filtrlar tizimning tezkor javob berishi va parametrlarning real vaqt rejimida optimallashtirilishini ta'minlash imkonini beradi: $P_m^N(\Delta\alpha_i) = \frac{1}{S} \sum_{k=1}^S [(e_{m(i)}^{(k)}) - (e_{m(i)}^{(k)})^T] = \frac{1}{S} \sum_{k=1}^S [(\alpha_{m(i)}^{(k)} - \hat{\alpha}_{m(i)}^{N(k)}) (\alpha_{m(i)}^{(k)} - \hat{\alpha}_{m(i)}^{N(k)})^T]$.


Sun'iy neyron tarmog'i yordamida holat vektorini baholashning rekurrent algoritmi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\begin{aligned}\hat{\alpha}_i &= \hat{\alpha}_{i/i-1} + K_i (\hat{\lambda}_i - h_i[\hat{\alpha}_{i/i-1}]), \hat{\alpha}_{i/i-1} = B_{i-1} \hat{\alpha}_{i-1}, K_i = C_i^{-1} H_i^T C_{\lambda i}, \\ C_i^{-1} &= (C_{i/i-1} + H_i^T C_{\lambda i} H_i)^{-1}, C_{i/i-1} = B_{i-1} C_{i-1}^{-1} B_{i-1}^T + Q_{i-1},\end{aligned}$$

bu yerda $h_i[\hat{\alpha}_{i/i-1}]$ – holat vektorining bashorat qilingan bahosini qayta hisoblash, $\hat{\alpha}_{i/i-1}$ – holat vektorining bashorat qilingan bahosi, $\hat{\lambda}_i$ – esa o‘lchov vektori hisoblanadi.

Adaptiv filtrlar tarkibidagi o‘rgatiladigan sun’iy neyron tarmog‘i boshqaruv obyektlarining chiziqli va nochiziqli o‘zgaruvchan parametrlarini kuzatish va o‘lchash natijasida olingan statistik xususiyatlarga moslashadi. Natijada, filtrlash jarayonida vazn koeffitsiyentlari avtomatik tarzda optimallashtiriladi, boshqaruv tizimining aniqligi va barqarorligi oshadi.

